

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**BURXANOV ALISHER XADJIMURADOVICH**

**QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHDA IQTISODIY MUNOSABATLARNI  
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.04 - Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации по экономическим наукам**

**Content of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract on economical sciences**

**Burxanov Alisher Xadjimuradovich**

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish. ....3

**Бурханов Алишер Хаджимурадович**

Совершенствование экономических отношений в повышении эффективности сельскохозяйственного производства.....39

**Burkhanov Alisher Hadjimuradovich**

Improvement of economic relations in increasing the efficiency of agricultural production.....75

**Эълон қилинган ишлар рўйхати**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 82

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**BURXANOV ALISHER XADJIMURADOVICH**

**QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHDA IQTISODIY MUNOSABATLARNI  
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.04 - Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.DSc/Iqt420 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)), Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Xushmotov Narkul Sadullaevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Doschanov Tangirbergen**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Aliyev Yashnar Egamberdiyevch**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Tashmatov Rustam Xusanovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03/30.01.2020.I.20.06 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengashining 2025-yil "12" avgust kuni soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).)

Dissertatsiya ishi bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (349 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78, e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "05" avgust kuni tarqatildi.

(2025-yil "05" avgust dagi № 85 raqamli reestr bayonnomasi).



**J.K.Sauxanov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**R.B.Utemuratov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash kotibi, PhD, dotsent

**K.Ubaydullaev**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy  
seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (Doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda rivojlanayotgan iqtisodiyotlar so‘nggi 20 yil mobaynida global qishloq xo‘jaligi va baliqchilik bozorlarining rivojlanishiga tobora ko‘proq hissa qo‘shdi va kelgusi o‘n yillikda ham shunday bo‘lishi kutilmoqda. Keyingi o‘n yillikda qishloq xo‘jaligi va baliqchilik mahsulotlaridan foydalanishning umumiy hajmi yiliga 1,0 foizga o‘sishi kutilmoqda, bu asosan past va o‘rta daromadli mamlakatlarda kuzatiladi. Jahon oziq-ovqat iste‘moli aholi soni va daromadlarning o‘sishi tufayli yiliga 1,2 foizga ko‘payishi taxmin qilinmoqda. Qishloq xo‘jaligi savdosi ishlab chiqarish va iste‘mol hajmiga mos ravishda o‘shishda davom etmoqda, bunda barcha iste‘mol qilinadigan mahsulotlarning taxminan 20 foizi chegaralardan o‘tkaziladi. Lotin Amerikasi va Karib havzasi, Shimoliy Amerika, Yevropa va Markaziy Osiyo qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy sof eksportchilari sifatida o‘z mavqeini mustahkamlashi va shu bilan qishloq xo‘jaligi korxonalariga global oziq-ovqat ta‘minoti zanjirlarida ishtirok etishdan foyda olish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratishi kutilmoqda. Bu yaxshi ishlaydigan bozorlarning muhimligini va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida daromad olishni qo‘llab-quvvatlagan holda xavfsiz va to‘yimli oziq-ovqat mahsulotlariga global kirishni ta‘minlash hamda hosilning yetishmasligi yoki ekstremal ob-havo hodisalari kabi mahalliy zarbalar ta‘sirini yumshatish uchun barqaror savdo tizimlari zarurligini ta‘kidlaydi.

Jahonda so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi resurslari narxlarining keskin o‘shishi global oziq-ovqat xavfsizligiga katta xavf solmoqda. Qishloq xo‘jaligi resurslari, xususan o‘g‘itlar narxining oshishi oziq-ovqat mahsulotlari narxining global ko‘lamda o‘shishiga olib kelmoqda. Dunyo miqyosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirishda bundan buyon yerdan intensiv foydalanishdan ko‘ra, qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlariga o‘tish orqali zamonaviy boshqarish uslubiyotlarini amaliyotga tadbiiq etish asnosida dehqonchilikda yuqori hosildorlikka intilish, chorvachilikda mahsuldorlikni oshirishning muhim sharti bo‘lgan investitsiyalarni ko‘paytirish dolzarbligi yanada ahamiyatli bo‘lib boraveradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, 2032 yilgacha bo‘lgan muddatda jahonda qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish hajmining 79 foizi qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligining oshib borishi hisobiga to‘g‘ri kelsa, 15 foizi haydaladigan yerlar maydonining ko‘payishi hisobiga, 6 foizi esa intensiv qishloq xo‘jaligi hisobiga ta‘minlanadi, bu o‘z navbatida qishloq xo‘jaligida yangicha iqtisodiy munosabatlarni qaror toptirishni taqozo etadi<sup>1</sup>.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida moliyaviy natijalarga qaratilgan hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish maqsadida sohaga zamonaviy boshqaruv usullarini izchillik bilan tadbiiq etish, yer resurslaridan foydalanishning eng optimal variantlarini izlab topish orqali takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini oshirishning barcha imkoniyatlaridan maksimal foydalanish shart-sharoitlarini yaratish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta

<sup>1</sup> © 2021 The World Bank Group 1818 H Street NW Washington, DC 20433 Telephone: 202-473-1000 Internet: [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org).

ishlash darajasini kamida 4/1 qismigacha yetkazish choralarini ko'rish, asosiy ekin turlari bo'lgan paxta va g'alla hosildorligini rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligidagi ko'rsatkichlar darajasiga qadar etkazish, urug'chilik tizimini mahalliyashtirish, agrologistika markazlarini barpo etish, mavjudlari faoliyatini yaxshilash, sohada bozor munosabatlari talablariga javob beradigan moliyalashtirishga o'tish hamda xavf-xatarlarni sug'urtlash tizimini takomillashtirish, qishloq hududlarini infratuzilmasini izchil yaxshilab borish kabi yo'nalishlarda izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu o'z navbatida sohada ilmiy asoslangan yondoshuvlarni, xususan tarmoqning samaradorligini oshirish uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali innovatsion iqtisodiyotga o'tish, erkin bozor munosabatlariga asoslangan uslubiyotlarini joriy etish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida tadqiqot olib borishni taqazo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli, 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli, 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-sonli, 2018-yil 16-yanvardagi "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5303-sonli, 2017-yil 9-oktyabrdagi "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5199-sonli, "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-14-sonli farmonlari, 2020-yil 6-martdagi "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4633-sonli, 2022-yil 28-maydagi "2022-yil hosildan bug'doyni xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-262-sonli, 2018-yil 28-fevraldagi "Paxta xomashyosi va boshqoli don yetishtirishni moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.**

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda yangicha (zamonaviy) iqtisodiy munosabatlarini takomillashtirish muammolari hozirda jahonning etakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari, jumladan Wageningen University and Research Centre (Niderlandiya), Universty of California Davis (AQSh), Swedish University of Agricultural Sciences (Shvetsiya), Universite Paris

Saclay (Fransiya), The Australian National University (Avstraliya), University of British Columbia (Kanada), The University of Tokyo (Yaponiya), China Agricultural University (Xitoy), University of Hohenheim (Germaniya), ETH ZURICH (Shveytsariya), Northwest a&f University (Xitoy), University of Massachusetts Amherst (Avtraliya), Ghent University (Belgiya), University of Copenhagen (Daniya), University College Dublin (Irlandiya), University of Valencia (Ispaniya), University of Milan (Italiya), King Saud University (Saudiya Arabistoni), Universiti Putra Malaysia (Malayziya), University of Agriculture Faisalabad (Pokiston), Foreign Trade Regulation-United States, International Water Management Institute (IWMI), United Nations Food and Agriculture Organization (FAO), CGIAR, Global Forum on Agricultural Research (GFAR), International Agriculture Center (Netherlands) kabi bir qator universitet va ilmiy markazlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy natijalar olingan. Jumladan: qishloq xo'jaligini raqamlashtirish va qishloq xo'jaligida inklyuziv o'sishni ta'minlashning ustuvorliklari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari aniqlashtirilgan (Wageningen University And Research Centre, Niderlandiya), oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda mayda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining samaradorligini oshirish yo'llari taklif qilingan (Universty Of California Davis, AQSh), qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish va organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish imkoniyatlari o'rganilgan (Swedish University Of Agricultural Sciences, Shvetsiya), qishloq hududlarini kompleks rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan (AGRIS, Rossiya), qishloq xo'jaligida resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish istiqbollari o'rganilgan (Universite Paris Saclay, Fransiya), bioekonomika va qishloq xo'jaligini diversifikatsiyalash borasida tadqiqotlar olib borilgan (University Of Hohenheim, Germaniya), qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni boshqarish mexanizmi yoritilgan (Universiti Putra Malaysia, Malayziya), qishloq xo'jaligida munosib mehnatni tashkil qilish modellari tahlil qilingan (University Of Agriculture Faisalabad, Pokiston), qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar o'rtasida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan (Belorussiya davlat qishloq xo'jaligi akademiyasi, Belorussiya), iqlim o'zgarishlarining qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishga ta'siri baholangan (ISCAD, O'zbekiston).

Dunyo miqyosida qishloq xo'jaligida yangicha iqtisodiy munosabatlarni joriy qilish va takomillashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda: agrar bozor tarkibi va ularning tasnifini ishlab chiqish; agrar sohada tejamkor texnologiyalar asosida mavjud yer va suv resurslaridan samarali foydalanish; qishloq xo'jaligida noan'anaviy agroxizmatlar bozorini takomillashtirish; qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish, agrosurslar va agroxizmatlar bozorlarini innovatsion omillar hisobidan barqaror rivojlantirish orqali qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtiruvchi korxonalarining iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ko'p asrlar davomida turli olimlar ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlarning nazariy va amaliy masalalariga

katta e'tibor berishgan.

Ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlarning nazariy asoslari xorijlik olim va mutaxassislar A.Didikin<sup>2</sup>, P.Buagilber, T.Kampanella, J.Keyns, F.Kene, U.Petti, D.Rikardo, P.Samuelson, A.Smit va boshqalarning asarlarida tadqiq etilgan.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlarning turli sohalarining zamonaviy konsepsiyasini ishlab chiqishga A.I.Altuxov<sup>3</sup>, A.A.Bagmut, L.V.Bondarenko, V.V.Kuznetsov, E.I.Semenova va boshqalar katta hissa qo'shganlar.

Qishloq xo'jaligi korxonalaridagi ichki iqtisodiy munosabatlar muammolari V.A.Anoxin, F.G.Arutyunyan, M.P.Tushkanov, A.M.Simechev, A.M.Yugay, L.V.Usenko<sup>4</sup> va boshqalar asarlarida alohida o'z aksini topgan.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha jumladan: Q.Choriyev, F.Nazarova, N.Xushmatov, Ya.Aliyev, A.Abdug'aniyev, A.Altiyev, G'.Qudratov, J.Sauxanov, R.Tashmatov, R.Ergashev, K.Ubaydullayev, T.Doschanov, O.Murtazayev, T.Farmonov, D.Elov, S.Umarov<sup>5</sup> kabi iqtisodchi olimlar

---

<sup>2</sup> Didikin A. Современные теории естественного права и классическая традиция //ΣΧΟΛΗ. Философское ан-тиковедение и классическая традиция. – 2014. – Т. 8. – №. 2. – С. 418-424.; Буагильбер П. Рассуждения о природе богатства, денег и налогов //Горький: Горьк. гос. ун-т им. Н.И Лобачевского. – 1973. – С. 60.; Кампанелла Т., Мор Т. Утопия. Город Солнца (сборник). – Litres, 2022.; Кейнс Д. Общая теория занятости, процента и денег. Избранное. – Litres, 2011.; Кене Ф. и др. Сучасні проблеми управління розвитком аграрного сектора економіки.; Петти В. Экономические и статистические работы, т. I и II. – 1940.; Давид Р. Начала политической экономии и налогового обложения. – Litres, 2023.; Самуэльсон П. О чем думают экономисты: Беседы с нобелевскими лауреатами. – Альпина Паблишер, 2016.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – Litres, 2011.;

<sup>3</sup> Алтухов А. И., Силаева Л. П., Меньшова А. Е. Размещение и специализация сельскохозяйственного производства как фактор развития кооперативного движения //Фундаментальные и прикладные исследования кооперативного сектора экономики. – 2019. – №. 6. – С. 3-8.; Рысьмятов А. З., Багмут А. А. Агропромышленная кооперация и перестройка структуры регионального АПК в условиях перехода к рынку //Краснодар: КГАУ. – 1994.; Бондаренко Л. В. и др. Состояние социально-трудовой сферы села и предложения по ее регулированию. – 2012.; Семёнова Е. И., Домрачев А. С. Оценка социальной и экономической эффективности в сельском хозяйстве //Экономика сельского хозяйства России. – 2014. – №. 12. – С. 63-68. Кузнецов В. В. и др. Методы управления развитием отраслей сельского хозяйства: теория, методология, практика. – 2015.;

<sup>4</sup> Шевелева И. Н., Анохин В. А. Трудовые отношения в сельскохозяйственных организациях: монография //Курган: Изд-во Курганской ГСХА. – 2011.; Арутюнян Ф. Г. и др. Методические подходы к оценке эффективности аграрного производства. – 2014.; Тушканов М. П. и др. Организация сельскохозяйственного производства. – 2021.; Симичев А. М. Формирование и эффективное функционирование инвестиций в сельском хозяйстве:(теория, методология, практика) //М.: ФГОУ ВПО РГАУ-МСХА им. КА Тимирязева. – 2007.; Югай А. М. Отношения собственности в сельском хозяйстве и необходимость их регулирования //Никоновские чтения. – 1997. – №. 2. – С. 17-20.; Усенко Л. Н., Холодов О. А. Цифровая трансформация сельского хозяйства //Учет и статистика. – 2019. – №. 1 (53). – С. 87-102.

<sup>5</sup> Чориев К.А. Проблемы аграрного ресурсного потенциала в условиях перехода к рынку. Т.: 1992. - 183с.; Nazarova F. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekiston agrar sektorini rivojlantirish istiqbollari. - i.f.d. ilm. darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati.- Т.: 2001. - 44 b.; Xushmatov N., Aliev Ya. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, agrosurslar va agroxizmatlar bozorlarini rivojlantirishdagi muhim nazariy masalalar. Ilmiy-amaliy tavsiyalar. Т.: - 2015. - 36 b.; Abduganiev A., Abduganiev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti (darslik) - Т.: 2004.»304 b.; Altiev A. S. Yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish muammolari // Monografiya. Toshkent, Fan. – 2018.;Qudratov G'.X. Iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish asosida g'allachilik tarmog'i samaradorligini oshirish (O'zbekiston Respublikasi misolida). -i.f.d. ilm. darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati.- Т.: 2008.-38 b.; Sauxanov J. K Agrar tarmoqda tashqi samarlarni optimal tartiblash va transaksiyon xarajatlarni pasaytirish mexanizimi (Qoraqolpogiston Respublikasi misolida). -i.f.d. ilm. darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. Nukus.: 2021.-38 b; Tashmatov R.X. O'zbekiston hududlari agrar sektorini rivojlantirishning nazariy, uslubiy va institutsional asoslari: sharh, tahlil va prognoz – Monografiya.- Т.: “Iqtisodiyot dunyosi”, 2021.- 212 b., Xushmatov N.S. G'o'za seleksion navlari iqtisodiy samaradorligini baholashning uslubiy asoslari. Monografiya. –Т.: Yangi asr avlodi. -2004. -125 b.; Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. -Т.:

tadqiqotlarini shular qatoriga kiritish mumkin.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish muammosi turli davrlarda ilmiy jamoatchilik tomonidan keng qamrovli o'rganilgan bo'lsa-da, dunyoda iqtisodiyotning integrasiyasini kuchayishi agrar iqtisodiyotni o'zgartirish bilan bog'liq holda uning ayrim jihatlari yuzasidan keyingi tadqiqotlarni olib borishni taqazo etadi.

Erkin bozor munosabatlari o'zgarishlari bilan kechayotgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning eng muhim vazifalaridan biri sifatda, ilmiy va amaliy asoslashni talab qiluvchi tarmoq o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishdir. Undan tashqari ichki xo'jalik munosabatlarni chuqur o'rganish orqali turli tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy shakllardagi qo'laniladigan mexanizmlarga baho berish asnosida diagnostika qilish usullarini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Yuqoridagilarning barchasi dissertatsiya ishining maqsad va vazifalarini, tadqiqotning asosiy yo'nalishlarini belgilash olish, ilmiy mantiq va yondashuvlar mexanizmlarini shakllantirish imkonini berdi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Guliston davlat universitetining "Iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish muammolari va zamonaviy yechimlari" bosh ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

agrar sohada iqtisodiy munosabatlarni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini nazariy tomonlarini ochib berish;

qishloq xo'jaligida mulkchilik munosabatlarning xususiyatlarini ilmiy asoslash;

mavjud ichki iqtisodiy munosabatlar holatini baholash va ularni o'zgartirishga uslubiy yondashuvni taklif qilish;

agrar sohada iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish va rag'batlantirishning ma'muriy uslubiyotini tizimlashtirish;

qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligi va darajasini baholash;

---

Extremum press, 2011. - 416 b., Убайдуллаев К. Природно-экономический потенциал и его влияние в развитии агропромышленного комплекса., Бюллетень науки и практики. Т. 8. №11. 2022., Doschanov T. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorining shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. Urganch.- 2018. 131 b., Муртазаев О. История развития кооперативов в Узбекистане и их преобразование на современном этапе. – 2018. Монография. Leibniz Institute of Agricultural Development in Transition Economies (IAMO). 50 стр.; 172.; Фарманов Т. Развитие кооперативов в сельском хозяйстве: текущее состояние и планы на будущее //Укрепление правовой базы кооперативов как фактор социально-экономического развития. – 2022. – Т. 1. – №.1. – С. 55-61.; Elov D. «Mintaqalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish» -i.f.d. ilm. darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati; Bozor raqobati sharoitida mintaqaviy agrosanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish zaruriyati, - Экономика и финансы (Узбекистан), 2023. 6 (166). 39-47 b.; Mintaqaviy agrosanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari. "Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti". 2023. № 4 (6), 298-306 b., Mintaqaviy agrosanoat ishlab chiqarishini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish modellari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 5/2023.; Umarov S. Suv xo'jaligining innovatsion rivojlanishi va asosiy yo'nalishlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar". 2017.

qishloq xo'jaligida raqamlashtirish zaruriyati va ustuvorliklarini aniqlashtirish;

qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini tashkil etish va rivojlantirish;

qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshlik darajasini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida respublikamizdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish tarmog'i va qishloq xo'jaligi korxonalari tanlab olingan.

**Tadqiqot predmetini** qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil qilish jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida yuzaga keluvchi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish jarayonida guruhlash, qiyosiy tahlil, statistik kuzatish, induksiya, deduksiya, modellashtirish, umumlashtirish, ilmiy farazlash va boshqa shu kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish-iqtisodiy munosabatlar" tushunchasining iqtisodiy mazmuni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonlarida ishtirok etuvchi subyektlar o'rtasida shakllanadigan, ishlab chiqarish vositalari va resurslaridan foydalanish, daromadni shakllantirish hamda uning taqsimlanishi bilan bog'liq iqtisodiy manfaatlar va mulkiy munosabatlarga asoslangan hamda bozor tamoyillari, davlat tartibga soluvchi mexanizmlari ta'sirida rivojlanuvchi iqtisodiy aloqalar tizimi jihatidan takomillashtirilgan;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonini ijaraga oluvchi ijara huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yer maydonidan kamida uch yil davomida, yuridik shaxslarga davlat organlarining qarorlari bilan to'g'ridan-to'g'ri ijaraga berilgan yer maydonlarini qayta ijaraga oluvchiga o'tkazish holatida kamida besh yil davomida o'zi foydalangan bo'lishi shartini kiritish taklifi asoslangan;

oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasini institutsional tahlil qilish va islohotlarning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, sohadagi global, mintaqaviy va hududiy muammolarning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq qilishga yo'naltirilgan ilmiy-uslubiy tuzilma faoliyatini yo'lga qo'yish orqali qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish va rivojlantirishning institutsional muhitini takomillashtirish taklifi asoslangan;

qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasidagi islohotlarni yanada jadallashtirishda "Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisini tashkil etish asosida qishloq xo'jaligini rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solishning loyiha-jarayon yondashuvini amalga oshirish taklifi ishlab chiqilgan;

O'zbekiston qishloq xo'jaligida iqtisodiy o'sish, qishloq xo'jaligi yalpi qo'shilgan qiymatining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda sohaning salmog'i dinamikasini ekonometrik modellashtirish asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda iqtisodiy munosabatlar tizimi takomillashtirilgan va bu tizimdan qishloq xo'jaligini rivojlantirish dasturlarini tayyorlashda foydalanishga tavsiya etilgan;

transformatsiyalash sharoitida tabiiy-iqlimiy, ijtimoiy, siyosiy, bozor, ishlab chiqarish va moliyaviy tashkil etuvchilarning qishloq xo'jaligiga izchil ta'sirini modellashtirish asosida davlat tomonidan qishloq xo'jaligini tartibga solish zaruriyati ochib berilgan;

agrар sohada tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni tashkil etishning nazariy jihatlari ochib berilgan va bunda yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlari muhim o'rin tutishi ko'rsatib berilgan;

qishloq xo'jaligini rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish usullarini takomillashtirishning uslubiyoti asoslangan, bu o'z navbatida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning o'ziga xos omillariga aniq usullarning ta'sir yo'nalishlarini hisobga olgan holda davlat tomonidan tartibga solishning istiqbolli mexanizmlarini tanqidiy baholash va aniqlash imkonini bergan;

agrар sohada iqtisodiy munosabatlarni qaror toptirish va rag'batlantirishning ma'muriy dastaklari va qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligi va darajasini baholash ko'rsatkichlari tahlil qilingan;

qishloq xo'jaligida kooperatsiya aloqalarini tashkil etish, shu bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsiya siyosati va innovatsion rivojlantirish faoliyatini yo'nalishlari va ustuvorliklari ko'rsatib berilgan;

yangicha iqtisodiy munosabatlarni qaror toptirish jarayonida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari aniqlashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishidan kelib chiqqan natijalar ishonchliligi iqtisodchi olimlar ilmiy jamoatchiligining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda yangicha iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish yuzasidan ilmiy goya va yondoshuvlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, tadqiqot jarayonida qo'llanilgan uslubiyotlarning asoslanganligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek taklif va tavsiyalarning amaliyotda sinovdan o'tganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular respublikamizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda yangicha iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni shakllantirish imkonini beradi.

Dissertatsiya ishida taklif etilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari elementlarini amalga oshirishning nazariy va uslubiy yondashuvlari, modellari, qoidalaridan qishloq xo'jaligida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiya tadqiqoti natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan ilmiy qoidalar qishloq xo'jaligida iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish va rivojlantirishga qaratilgan amaliy usullar va prognozlarda o'z aksini topgan. Ta'kidlanganidek olingan natijalardan O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston fermerlar Kengashi va mahalliy

hokimliklar faoliyatida hamda tarmoq OTMLaridagi tegishli fan yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim jarayonida keng foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qishloq xo‘jaligi iqtisodiy munosabatlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish-iqtisodiy munosabatlar” tushunchasining iqtisodiy mazmuni qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yaratish, taqsimlash, ayirboshlash va iste‘mol qilish jarayonlarida ishtirok etuvchi subyektlar o‘rtasida shakllanadigan, ishlab chiqarish vositalari va resurslaridan foydalanish, daromadni shakllantirish hamda uning taqsimlanishi bilan bog‘liq iqtisodiy manfaatlar va mulkiy munosabatlarga asoslangan hamda bozor tamoyillari, davlat tartibga soluvchi mexanizmlari ta‘sirida rivojlanuvchi iqtisodiy aloqalar tizimli jihatidan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirigining 2021-yil 25-dekabrda 538-son buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida iqtisodiy manfaatlar va mulkiy munosabatlarga asoslangan hamda bozor tamoyillari, davlat tartibga soluvchi mexanizmlari ta‘sirida rivojlanuvchi iqtisodiy aloqalar tizimi jihatidan takomillashtirilgan qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish-iqtisodiy munosabatlar tushunchasi bo‘yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonini ijaraga oluvchi ijara huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab yer maydonidan kamida uch yil davomida, yuridik shaxslarga davlat organlarining qarorlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijaraga berilgan yer maydonlarini qayta ijaraga oluvchiga o‘tkazish holatida kamida besh yil davomida o‘zi foydalangan bo‘lishi shartini kiritish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-15-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 6-son, 2021-yil 24-noyabrda “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 709-son qarori bilan tasdiqlangan “Yer uchastkasiga bo‘lgan huquq va majburiyatlarni boshqa shaxsga o‘tkazish (qayta ijaraga berish) tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 9-aprelda 05/06-04-145-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish imkoni yaratilgan;

oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasini institutsional tahlil qilish va islohotlarning asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish, sohadagi global, mintaqaviy va hududiy muammolarning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq qilishga yo‘naltirilgan ilmiy-uslubiy tuzilma faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish-

iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish va rivojlantirishning institutsional muhitini takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-yanvardagi "Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida islohotlarni tadqiq qilish, strategik rejalashtirish hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-58-son qarori ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 9-apreldagi 05/06-04-145-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qishloq xo'jaligi sohasini institutsional tahlil qilish va islohotlarning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, sohadagi global, mintaqaviy va hududiy muammolarning hamda agroklastlar faoliyatining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq qilish samaradorligini oshirish imkonini bergan;

qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasidagi islohotlarni yanada jadallashtirishda "Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisini tashkil etish asosida qishloq xo'jaligini rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solishning loyiha-jarayon yondashuvini amalga oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-iyundagi "Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-227-son qarori ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 9-apreldagi 05/06-04-145-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

O'zbekiston qishloq xo'jaligida iqtisodiy o'sish, qishloq xo'jaligi yalpi qo'shilgan qiymatining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda sohaning salmog'i dinamikasini ekonometrik modellashtirish asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari Sirdaryo viloyati Qishloq xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 9-apreldagi 05/06-04-145-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tarmoqqa investitsiyalarni jalb etish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlanmalarni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasidagi ajratilayotgan subsidiyalarni ko'lamini oshirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 8 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 34 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan 12 respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan hamda 3 ta monografiya, 1 darslik chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 235 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Qishloq xoʻjaligida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida agrar sohada iqtisodiy munosabatlarni tashkil etishning nazariy jihatlari, koʻp ukladli iqtisodiyot sharoitida qishloq xoʻjaligida mulkchilik munosabatlarining xususiyatlari hamda yangicha iqtisodiy munosabatlar sharoitida qishloq xoʻjaligida iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish uslubiyoti samaradorligini oshirish boʻyicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamiz iqtisodiyotiga joriy etish yoʻnalishlari yoritilgan.

Hozirgi davrda ayirboshlash jarayoni ishlab chiqarish munosabatlari tizimida asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uni imkon qadar tezroq ayirboshlashni talab qiladi. Qishloq xoʻjaligidagi ishlab chiqarish munosabatlarining ana shu oʻziga xos xususiyati ishlab chiqaruvchilarni ayirboshlash jarayonini takomillashtirishga majbur qiladi.

Qishloq xoʻjaligida ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etish boʻyicha iqtisodiy adabiyotlar boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar ishlab chiqarish munosabatlari tarkibini aniqlash imkonini beradi (1-rasmga qarang).

Nazariy jihatdan iqtisodiy munosabatlarni asoslanishi shuni koʻrsatadiki, ular odatda egalik qilish, tasarruf etish, ayirboshlash, isteʼmol qilish kabi unsurlar bilan ifodalanadi. Shuningdek iqtisodiy munosabatlar oʻzida tovar-pul munosabatlarini, ishlab chiqarish, ayirboshlash va isteʼmol sohalari oʻrtasida oʻzaro munosabatga kirishadi. Biroq mazkur munosabatlarni aniqlashtirishda va tizimlashtirishda yaxlit real holatda oʻzgaruvchan siyosiy va iqtisodiy vaziyatda iqtisodiy munosabatlarni toʻkror ishlab chiqarilishiga qadar boʻlgan barcha jarayon va bosqichlarni qamrab olishi maqsadga muvofiqdir.

Muallifning fikricha, iqtisodiy munosabatlar ishlab chiqarish munosabatlarining tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, birinchi navbatda, iqtisodiy munosabatlarning natijalarini hisobga olish odatiy holdir: mahsulot tannarxi, uning narxi va olingan foyda. Boshqaruv mexanizmining qabul qilingan shakli ishlab chiqarish munosabatlarining tavsifi sifatida taqsimlash munosabatlari qoidalarini, mehnatni ragʻbatlantirish tizimini, korxonaning investitsiya siyosatini shakllantiradi, shuning uchun iqtisodiy munosabatlarning bir qator koʻrsatkichlari ishlab chiqarish munosabatlarining shakliga qarab ularning mazmunan talqinini oʻzgartirishi mumkin. Bu faraz ishlab chiqarish munosabatlari iqtisodiy munosabatlarning shakllanishida birlamchi ekanligini taʼkidlash imkonini beradi.



**1-rasm. Qishloq xo'jaligi takror ishlab chiqarilishi jarayonida iqtisodiy munosabatlar tuzilishi<sup>6</sup>**


Tadqiqotlar natijasida abstrakt-mantiqiy metodni qo'llash hamda ilmiy muammoni metodologik bilish natijalari asosida qishloq xo'jaligida iqtisodiy munosabatlar kategoriyasining konseptual xaritasi mazmuni tizimlashtirilgan (2-rasmga qarang). Muallif yondashuvi zamonaviy davrda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish-iqtisodiy munosabatlarning tizim tashkil etuvchi omillari va unsurlarini har tomonlama va ko'p qirrali asoslash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, dunyoning aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida bo'lgani kabi qishloq xo'jaligi yerlari borasida xususiy mulk munosabatlarning qaror topishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Biroq, bunday keng qamrovli masalani, shunchaki "tepadan-pastga" tamoyili asosida hal qilib bo'lmaydi, bunday yo'l tutish qishloq xo'jaligi tarmog'ining iqtisodiy tanazzulini keltirib chiqarishi tabiiy holdir.

Qishloq xo'jaligi yerlarini xususiy mulkka o'tkazish zamonaviy agrar islohotlar doirasida institutsional o'zgarishlarining asosiy bo'g'inini tashkil qiladi, chunki ushbu muammoni hal qilmasdan, islohotlarning boshqa barcha yo'nalishlari

<sup>6</sup> Tadqiqotlar natijalari bo'yicha muallif ishlanmasi.

O'zbekistonda iqtisodiy munosabatlarning erkin bozor yo'liga o'tishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratib bera olmaydi.




**2-rasm. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish-iqtisodiy munosabatlar kategoriyasining konseptual xaritasi mazmuni<sup>7</sup>**

Qisqa muddatda xususiylashtirish natijasida O'zbekistonda iqtisodiyotning nodavlat sektori shakllandi, unga mos keladigan bozor institutlari (aksiyadorlik jamiyatlari, qimmatli qog'ozlar bozori, institutsional investorlar tizimi, banklar, sug'urta kompaniyalari) rivojlandi va xususiylashtirilgan mulkka rasmiy mulk huquqi qayta taqsimlandi<sup>8</sup>.

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>8</sup> Tashmuhamedova M. Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini amalga oshirish bosqichlarining xususiyatlari //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2023. – T. 24. – №. 5. – 201-210-b.

Qishloq xo‘jaligida nodavlat sektori ulushining o‘sib borayotganligini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi o‘sib borayotganligida ham ko‘rishimiz mumkin (3-rasm). Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 2023-yilda 403974,4 mlrd. so‘mni, 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni tashkil etgan.



**3-rasm. Qishloq xo‘jaligi umumiy mahsulotlari tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi (mlrd. so‘m)<sup>9</sup>**

Muallifning fikricha, qishloq xo‘jaligida yer ijarasi munosabatlari rivojlanishi bilan, qishloq xo‘jaligi korxonalarini yer resurslarini ijara shartnomasi asosida qisman egalik qilish va himoya qilish huquqini birlashtirib, o‘z manfaatlarini ijara egasi manfaatlarini bilan muvofiqlashtiradi. Bu esa yerdan samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi. Yerni ijaraga berish muddati muhim ahamiyatga ega bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘ziga xosligi hamda investitsiya aylanmasi davrini inobatga olganda, yerni uzoq muddatli ijara berish qisqa muddatli ijaraga nisbatan samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi (1-jadvalga qarang).

Sohani davlat tomonidan tartibga solish vazifalariga, agrosanoat ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi va boshqa tarmoqlar o‘rtasida iqtisodiy mutanosiblikni ta‘minlash, fermer xo‘jaliklarni aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlash, qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlari xodimlari daromadlarini tenglashtirish, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashlar kiradi. Qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlar bilan o‘zaro munosabatlaridagi nomutanosiblik nafaqat bozor mexanizmi, balki budjetdan moliyalashtirish yo‘li bilan ham ta‘min etilishi lozim.

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

**Yerdan uzoq muddatli ijara huquqi asosida foydalanishning afzalliklari<sup>10</sup>**

№	Afzalliklar	Iqtisodiy mazmuni
1	<b>Qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali va oqilona foydalanishni ta‘minlash</b>	Ijaraga oluvchining kamida uch yil davomida yer maydonidan foydalanishi talabini joriy etish, yerdan foydalanishning uzluksizligi va samaradorligini ta‘minlaydi. Bu muddat ichida yerdan maqsadli va oqilona foydalanilmas ekan, yerning boshqa ijarachilarga yoki davlat ehtiyojlari uchun qayta taqsimlash mumkin bo‘ladi.
2	<b>Barqarorlik va investitsiya kiritish uchun kafolat yaratish</b>	Qishloq xo‘jaligi yerlariga investitsiyalar ko‘pincha uzoq muddatli tavsifga ega bo‘lib — yerni tayyorlash, tuproqni qayta tiklash, zamonaviy agrotexnika usullarini joriy etish uchun vaqt va mablag‘ talab etiladi. Ijara huquqining kamida uch yil yoki qayta ijara besh yil qilib belgilanishi, investor va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga o‘z mablag‘larini erkin tasarruf etishni kafolatlaydi.
3	<b>Qishloq xo‘jaligida barqaror rivojlanish va iqtisodiy samaradorlik</b>	Uzoq muddatli ijara huquqi sharoitida ijarachi o‘z rejalarini aniq belgilab, yerdan dehqonchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik kabi sohalarda samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
4	<b>Davlat idoralari va ijarachilar o‘rtasida huquqiy munosabatlarni aniqlashtirish</b>	Ijara muddatlarini aniq belgilash, ijara munosabatlarining barqarorligini oshiradi va ijara borasidagi nizolar, sud tartibidagi bahslarni kamaytiradi. Shu bilan birga, davlat organlarining qarorlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijara berilgan yer maydonlarini qayta ijara oluvchilar uchun besh yillik muddatni belgilash, ularning mas‘uliyatini oshiradi va yerdan foydalanish jarayonidagi shaffoflikni ta‘minlaydi.
5	<b>Yer resurslarini muhofaza qilish va yerning muomaladan chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik</b>	Qishloq xo‘jaligi yerlari yer resurslarning muhim qismi bo‘lib, ularning buzilishi, sho‘rlanishi va cho‘llashishi katta muammo hisoblanadi. Ijarachi yerdan foydalanishni uzoq muddat davomida amalga oshirsa, yerni qayta tiklash va muhofaza qilish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rishiga imkon paydo bo‘ladi.
6	<b>Ijara shartnomalarida ustuvorlik va adolatni ta‘minlash</b>	Qayta ijara berilgan yerlar uchun maxsus muddat (kamida besh yil) belgilanishi, bu yerlarni ijara oluvchilarga nisbatan adolatli yondashuv va huquqiy barqarorlikni ta‘minlaydi. Bu erkin bozor munosabatlarida ijara munosabatlarining to‘g‘ri va barqaror tartibda rivojlanishiga yordam beradi.
7	<b>Mahalliy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo‘llab-quvvatlash</b>	Uzoq muddatli ijara huquqi mahalliy fermerlar va kichik qishloq xo‘jaligi korxonalarini rivojlantirishda muhim omil bo‘ladi. Bu ularga o‘z ishini kengaytirish, qishloq joylarida barqaror iqtisodiy faoliyat yuritish imkoniyatini beradi va mahalliy aholi daromadini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishida qishloq xo‘jaligida taqsimlash munosabatlari 3 darajada ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiqligi ko‘rsatiladi.

<sup>10</sup> Muallif ishlanmasi.

1-bosqich. Taqsimot munosabatlari olingan foydani uchta asosiy fondga: ishlab chiqarish fondiga, iste'mol fondiga va jamg'arish fondiga bo'lishdan boshlanadi. Uchta fond o'rtasidagi taqsimot tuzilmasi korxonaning o'zi tomonidan belgilanadi va paydo bo'ladigan vazifalarga qarab farq qilishi mumkin. Shu bilan birga, ishlab chiqarish fondi va iste'mol fondining o'ziga xos minimal chegarasi mavjud bo'lib, u oddiy takror ishlab chiqarishni va korxonadan tomonidan ijtimoiy kafolatlarni amalga oshirishni kafolatlaydi.

2-bosqichda ishlab chiqarish fondini taqsimlash korxonaning texnologik va texnik ehtiyojlariga to'liq bo'ysunadi. Jamg'armaning asosiy tarkibiy qismlariga asosiy vositalarni sotib olish va saqlash xarajatlari, moddiy resurslar (urug'lik, o'g'itlar, gerbitsidlar, yoqilg'i-moylash materiallari), shuningdek ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq har xil xarajatlar kiradi.

Iste'mol fondi to'rt yo'nalishga bo'linadi: belgilangan ish haqi va stavkalar asosida shakllantiriladigan xo'jalik ichidagi bo'linmalarining ish haqi fondi, mulk va yer ulushlari bo'yicha dividendlar to'lash xarajatlari, shuningdek, ma'muriyat xodimlarining ish haqi fondi va bonus fondi.

Jamg'arma fondi uchta fond bilan ifodalanadi. Investitsion fond uzoq muddatli investitsiyalar uchun, shu jumladan, yangi faoliyat turlari uchun mablag'larni uzoq vaqt davomida to'playdi. Zaxira fondi ishlab chiqarish fondi uchun iqtisodiy "xavfsizlik yostig'i" bo'lib, aylanma mablag'lar yetishmaganda foydalaniladi. Sug'urta fondi, qoida tariqasida, fors-major holatlarida foydalanish uchun oz miqdorda shakllantiriladi.


3-bosqich. Bu taqsimotning eng past darajasi bo'lib, bu yerda xo'jalik ichidagi bo'linmalar xodimlarining iqtisodiy manfaatlari amalga oshiriladi.

Dissertatsiyaning "**Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish va ichki xo'jalik munosabatlarini shakllanishining hozirgi holati**" deb nomlangan ikkinchi bobida ko'p ukladli iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilingan, qishloq xo'jaligida iqtisodiy munosabatlarni qaror toptirishning asosiy tendensiyalari aniqlashtirilgan, qishloq xo'jaligi korxonalarida ichki xo'jalik munosabatlarini rivojlantirish va baholash masalalariga asosiy e'tibor qaratilgan. Tadqiqotlar natijasida O'zbekiston Respublikasida yangicha iqtisodiy munosabatlar sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi institutsional muhit modeli ishlab chiqilgan (4-rasmga qarang).

Tadqiqot ishida yangicha iqtisodiy munosabatlar sharoitida institutsional muhit ikkita muhim omillarning ta'siri doirasida shakllanadi:

**1. Yangi me'yoriy omillar:** erkin bozor munosabatlari va integratsiyaning chuqurlashuvi natijasida kuchli raqobat muhiti ta'siri doirasida tarmoqni rivojlanishini ta'minlamaydigan ishlab chiqarishning o'sish miqdorini kuzatilishi; narxlar va bozor me'yorlarini buzilishi; oziq-ovqat xom-ashyosiga yuqori talabning paydo bo'lishi; eksportni ko'paytirish yuzasidan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi siyosatini amalga oshirilishi; xalqaro iqtisodiy qarama-qarshiliklarni kuchayishi, ishonch inqirozining yuzaga kelishi; aksariyat mashina-

traktor parklarini yaroqsiz holga kelib qolishi natijasida, qisqa muddatlarda yuqori unumli texnikalar bilan ta'minlanish zaruriyati kelib chiqishi; - qishloq aholisini turmush darajasini oshirishning keskin choralarini ko'rish va kambag'allik darajasini qisqartirishni davlat darajasida muhim ahamiyat kasb etishini yuzaga kelishi; qishloq xo'jaligi dehqon, fermer xo'jaliklari subyektlarning daromadlarini oshirish qulay tadbirkorlik muhitini yaratish choralarini ko'rish; tuproq unumdorligini pasayishini oldini olish choralarini ko'rish; logistika infratuzilmalari barpo etishning zaruriyati kabilarda ko'rish mumkin.



**4-rasm. O'zbekiston Respublikasida yangicha iqtisodiy munosabatlar sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi institutsional muhit modeli**<sup>11</sup>

**2. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash omillari:** subsidiyalar va moliyaviy yordam; soliq imtiyozlari va fiskal siyosat; innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va joriy etish; qishloq xo'jaligi

<sup>11</sup> Tadqiqot natijalari bo'yicha muallif ishlanmasi.

eksportini qo'llab-quvvatlash; bozorni tartibga solish va infratuzilma yaratish; ijtimoiy himoya va mehnat bozorini boshqarish; qishloq xo'jaligida kooperatsiyani rivojlantirish; qishloq xo'jaligi yer maydonlarining melorativ holatini yaxshilash; ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish.

Korxonada darajasida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni obyektiv o'rganish uchun tadqiqot ishida ichki iqtisodiy munosabatlarni, ularning transformatsiyasini hisobga olgan holda baholashning uslubiy yondashuvi ishlab chiqilgan (5-rasmga qarang).

Uslubiy yondashuvning tarkibiy qismlari — bu boshlang'ich jamoalar faoliyati kontekstida ichki iqtisodiy munosabatlar elementlaridan foydalanishni tahlil qilish, mehnatni rag'batlantirish tizimining transformatsion xususiyatlari va ishchilar tomonidan boshlang'ich jamoalar faoliyatini baholash.


Tadqiqot natijasida, xo'jalik ichidagi munosabatlarning hozirgi holati to'g'risida eng to'liq obyektiv va ilmiy asoslangan g'oyani qishloq xo'jaligi korxonalari xodimlarining fikrlarini hisobga olgan holda olish mumkin. Iqtisodiy ichki munosabatlar tizimidagi juda muhim masala — bu jamoa xodimining shaxsiy idroki, birlamchi ishlab chiqarish bo'g'inining shakllanishi va faoliyatida unga nisbatan motivatsion vositalar majmuasini amalga oshirishdir.

Agrosanoat majmuidagi tez o'zgaruvchan vaziyat, ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilish nafaqat tarmoqni energiya bilan ta'minlashni oshirish, balki raqamli texnologiyalardan foydalanish, agrosanoatda institutsional muhitni o'zgartirishni ham nazarda tutadi va murakkab, yetarli darajada qurilgan ichki xo'jalik iqtisodiy munosabatlarni talab qiladi.

Dissertatsiyaning **“Transformatsiyalash sharoitida iqtisodiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish”** deb nomlanuvchi uchinchi bobida agrar sohada iqtisodiy munosabatlarni qaror toptirish va rag'batlantirishning ma'muriy dastaklari tizimlashtirilgan, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish darajasi va samaradorligi baholangan, shu bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligida raqamlashtirish ustuvorliklari aniqlashtirilgan.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish, shuningdek, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash holatini yaxshilash, iqtisodiy muvozanatni saqlash va qishloq xo'jaligi tarmog'i va boshqa iqtisodiy sohalar o'rtasida daromad darajasini yaqinlashtirish, mahalliy qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligi bilan ham tavsiflanadi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish tizimida loyiha-jarayon yondashuvidan foydalanish samarali vosita ekanligini e'tirof etgan holda, o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda, uni modernizatsiya qilish va bugungi shart-sharoitlarga moslashtirish tavsiya qilinadi (5-rasm).



**5-rasm. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solishda loyiha-jarayon yondashuvining tuzilmaviy sxemasi<sup>12</sup>**

“O'zbekiston-2030” strategiyasida Fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish va bunda natijaga yo'naltirilgan budjet

<sup>12</sup> Muallif ishlanmasi.

amaliyotiga o'tish, Jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lish<sup>13</sup> maqsad va vazifalarining belgilab berilishi qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ko'plab usullarini ko'rib chiqish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xomashyo bozorlarini, shuningdek, ayniqsa zaif tovar guruhlarini rivojlantirishning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishning obyektiv zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyundagi "Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-85-sonli Farmonida Milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkilotining Subsidiyalar va kompensatsiya choralari to'g'risidagi bitimiga (ASCM) muvofiqlashtirishga<sup>14</sup> alohida e'tibor qaratilishi o'z navbatida qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash masalalariga Jahon savdo tashkiloti talablaridan kelib chiqqan holda yondashish lozimligini ko'rsatadi. Jahon savdo tashkiloti qoidalariga ko'ra, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uslubiyotini qayta ko'rib chiqish talab etiladi (6-rasmga qarang).

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasini baholashda foydalaniladigan asosiy ko'rsatkich qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga taqdim etiladigan savdoni buzuvchi qo'llab-quvvatlashning barcha turlarini o'z ichiga olgan qo'llab-quvvatlashning umumiy ko'rsatkichi Aggregate measure of support (AMS) hisoblanadi. Qo'llab-quvvatlashning umumiy ko'rsatkichi (AMS) Qo'llab-quvvatlashning umumiy ko'rsatkichi mahsulotlar doir o'ziga xos qo'llab-quvvatlash (don, go'sht, sut, tuxum kabi aniq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va narxni barqarorlashtirish uchun subsidiyalar) va mahsulotlarga tegishli bo'lmagan umumiy qo'llab-quvvatlash (muayyan turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmagan qo'llab-quvvatlash: imtiyozli kreditlar va tariflar, har xil xarajatlar uchun kompensatsiya va boshqalar)ga bo'linadi. JST qoidalariga muvofiq davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasini baholashning umumiy uslubiyoti 6-rasmda keltirilgan.


O'zbekiston sharoitida savdo-sotiqni buzadigan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning mahsulotlar bilan va mahsulotlarga bog'liq bo'lmagan ko'rinishlari bir tekis taqsimlanmasligiga guvoh bo'lamiz. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-dekabrda 711-sonli "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga subsidiya berish axborot tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga 22 turdagi subsidiyalar berilishi ko'zda tutilgan bo'lsa<sup>15</sup>, atigi 2 ta turdagi subsidiya mahsulotlarga bog'liq bo'lmagan ko'rinishida taqdim etilishiga guvoh bo'lamiz.

---

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-58-sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni, <https://lex.uz/docs/6600413#6605156>

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyundagi PF-85-sonli "Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni, <https://lex.uz/docs/6949734>


<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-dekabrda 711-sonli "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga subsidiya berish axborot tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, <https://lex.uz/docs/6315790>



6-rasm. JST qoidalari bo'yicha davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasini hisob-kitob qilish uslubiyoti<sup>16</sup>

<sup>16</sup> Tadqiqot natijalarida muallif ishlanmasi.

Davlat tomonidan tartibga solish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash sohasidagi mahalliy va xorijiy olimlar, mutaxassislarning fikrlarini umumlashtirgan holda, xalqaro tashkilotlar uslubiyoti, shuningdek, dissertatsion tadqiqot natijalaridan foydalanilgan holda, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini davlat tomonidan tartibga solish tizimining samaradorligini baholash uslubiyoti ishlab chiqilgan (7-rasm).



**7-rasm. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish tizimi samaradorligini baholashning konseptual modeli<sup>17</sup>**

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalardan foydalanish katta hajmdagi ma’lumotlardan foydalanish, ularni operativ qayta ishlash va saqlash bilan birga

<sup>17</sup> Muallif ishlanmasi.

keladi, bu esa tegishli infratuzilmani rivojlantirishni hamda ushbu sohada malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash darajasini oshirishni taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligida raqamlashtirishni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri CROPIO yoki GPS tizimi asosidagi sun'iy yo'ldosh kuzatuv uskunalari bir vaqtning o'zida o'rnatish orqali qishloq xo'jaligi texnikalarining harakatini kuzatishning zamonaviy usullaridan foydalanish ekanligi aniqlashtirilgan. Bu texnologiya mashinaning ishlash samaradorligini operativ nazorat qilish, mashinaning asossiz ishlamay qolishini aniqlash, eng maqbul yo'nalishlarni, yoqilg'i sarfini, tezlikni va hokazolarni aniqlash imkonini beradi, bu esa, albatta, mashinalar parkining boshqarilishi va uning samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlar yirik qishloq xo'jaligi korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish tezligiga ularning ishlab chiqarish hajmi ta'sir qiladi, degan xulosaga kelish imkonini beradi (2-jadval).

Yirik korxonalar (3-guruh) kichik korxonalar (1-2-guruh) bilan solishtirganda raqamlashtirishning rivojlanish darajasi yuqori. Bu nafaqat asosiy ta'sir etuvchi omil bo'lgan ikki guruhning turli moliyaviy imkoniyatlari, balki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining past darajasida raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurati yo'qligi bilan bog'liq bir qator obyektiv sabablar bilan izohlanadi (8-rasmga qarang).


## 2-jadval

### 2023-yilda O'zbekistonda agrosanoat kompleksining xo'jalik yurituvchi subyektlari tomonidan yangi texnologiyalarga bo'lgan talab<sup>18</sup>

Texnologiyalar/xo'jalik turlari	Dehqon xo'jaliklari	Fermer xo'jaliklari	Qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan tashkilotlar	Yirik agrox-oldinglar (tovar va eksportga yo'naltirilgan xo'jaliklar)
“Organik” qishloq xo'jaligi	+	=	=	-
Aqilli qishloq xo'jaligi	-	-	=	+
Yirik chorvachilik kompleksi	-	-	-	+
Tomchilatib sug'orish	-	=	=	+
Ommaviy zararkunandalarga qarshi kurash	=	=	+	+
Avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish	-	-	=	+
Chiqindisiz (ekologik toza) qishloq xo'jaligi	+	+	=	=
Bioyoqilg'i	-	-	=	=

Izoh: amalga oshirish salohiyati: yuqori (+); o'rtacha (=); past (-).

<sup>18</sup> Burxanov A.X. va boshqalar. Qishloq xo'jaligida raqamlashtirishni rivojlantirishning daslabki shartlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi <https://umft.uz/>, Manba: “Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasi va so'rov natijalari bo'yicha muallif ishlanmasi. 379-385-betlar.



**8-rasm. Sirdaryo viloyati qishloq xo'jalik korxonalarida axborotlashtirish darajasi, %da (2023-yil)<sup>19</sup>**

Raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi yuqori bo'lgan hududlar yuqori rentabellikdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining mavjudligi bilan ajralib turadi.

Dissertatsiyaning **“Qishloq xo'jaligida xo'jaliklararo tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish istiqbollari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida qishloq xo'jaligida kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yish va rivojlantirish, qishloq xo'jalik korxonalarining investitsion faolligini oshirish masalalari o'rganilgan, shu bilan bir qatorda qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali foydalanish yo'llari aniqlashtirilgan.

Qishloq xo'jaligi kooperativlari bilan bir qatorda, jahonda qishloq xo'jaligi subyektlarini moliyalashtirish bilan shug'ullanuvchi kredit kooperativlari ham keng tarqalganligini ta'kidlanadi. Ular qishloq xo'jaligini kreditlashda muhim o'rin tutadi. Ispaniyada kooperativ banklar tomonidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini kreditlash ulushi 30%, Germaniya – 44%, Shvetsiya – 45%, Belgiya – 50%, Finlyandiya – 58%, Portugaliya – 60% dan ortiq, Avstriya – 65%, Frantsiya-75%, Yaponiya-80%, Niderlandiya – 90%ni tashkil qiladi<sup>20</sup>. Ushbu


<sup>19</sup> Tadqiqotlar natijalari asosida muallif ishlanmasi.

<sup>20</sup> Cabo P., Rebelo J. Why do agricultural credit cooperatives merge? The Portuguese experience //Annals of Public and Cooperative Economics. – 2005. – T. 76. – №. 3. – C. 491-516.

mamlakatlarda tashkil etilgan kooperativ banklar qishloq xo‘jaligi sohasining uchdan ikki qismiga xizmat qiladi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida kreditlashning umumiy hajmida kooperativ banklarga qisqa va o‘rta muddatli kreditlarning oltidan bir qismi, shu jumladan yer sotib olish uchun kreditlarning uchdan bir qismi to‘g‘ri keladi<sup>21</sup>. Ushbu mamlakatlarda kooperativ banklar tizimining yaratilishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini moliyalashtirishning ishonchli tizimini yaratishga yordam berdi.

Bugungi kunda kredit resurslarining qimmatligi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini kredit resurslaridan foydalanishni rag‘batlantirmaydi, shu bois, sohalar kesimida tijorat banklari tomonidan kreditlashni tahlil qilish natijalari, 2020-2023-yillar mobaynida qishloq xo‘jaligini kreditlash hajmi pasayish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘rsatadi, bu o‘z navbatida qishloq xo‘jaligini moliyalashtirishning boshqa shakllaridan foydalanishga bo‘lgan ehtiyojni oshiradi (9-rasm).



**9-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar, mlrd. so‘m<sup>22</sup>**

<sup>21</sup> Turvey C. G. Historical developments in agricultural finance and the genesis of America’s farm credit system //Agricultural Finance Review. – 2017. – T. 77. – №. 1. – C. 4-21.

<sup>22</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari

Jahonda iste'mol kooperativlarini moliyalashtirishning asosiy manbalarini ichki manbalar tashkil qiladi, bunday manbalar sirasiga pay ulushlari, qishloq xo'jaligi va kooperativ tuzilmalar uchun kredit tashkilotlarining ixtisoslashtirilgan, tor yo'naltirilgan kreditlari, shuningdek tijorat banklarining kreditlari kiradi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda kooperativlarni rivojlantirishga davlat tomonidan katta moliyaviy ko'mak ko'rsatiladi. Kooperativ tizimining oyoqqa turishi sharoitida davlat tomonidan bu tarzda qo'llab-quvvatlash muhim o'rin tutadi. Tizimni qo'llab-quvvatlashning asosiy iqtisodiy vositalari soliq imtiyozlari va ta'tillari, subsidiyalar va imtiyozli kreditlardan iboratdir.

Mamlakatda iste'mol kooperatsiyasini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi sabablarni bartaraf etish kooperativlarni yaratish jarayonini "pastdan" boshlash imkonini beradi, ya'ni agrosanoat ishlab chiqarish ishtirokchilari iste'mol kooperativlarini yaratish uchun real imkoniyatlar va iqtisodiy manfaatlarga ega bo'lishi lozim.

Qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

1. Savdo-sanoat palatasi qoshida hududlarda qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi bo'linma tashkil qilish. Ushbu bo'linmalar etakchilik, axborot va targ'ibot funksiyalari, shuningdek, hukumatning barcha darajalarida kooperativ tuzilmalar manfaatlarini himoya qilishni amalga oshirishlari lozim;

2. Qishloq xo'jaligi kooperativlari uchun axborot va konsalting ko'magini yo'lga qo'yish;


3. Kooperatsiyani rivojlantirish borasida ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish;

4. Kooperativlar samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalarini sarhisob qilish asnosida, tizimli-takror ishlab chiqarish yondashuvi asosida qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsion faoliyatini tashkil etish modeli ishlab chiqilgan (10-rasmga qarang).

Qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsion faoliyatini tashkil etishning taqdim etilgan modeli, birinchi navbatda, investitsiya jarayoni bir vaqtning o'zida iqtisodiy faoliyatning to'rtta yo'nalishi: moliyaviy, investitsion, ishlab chiqarish-tijorat, ishlab chiqarish-tijorat-ijtimoiy-madaniy sohalarda amalga oshirilishidan dalolat beradi. Shu bilan birga, taklif etilayotgan yondashuv va model doirasida qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsion faoliyatini tashkil etish qat'iy belgilangan ketma-ketlikda amalga oshmasligini ta'kidlash lozim, chunonchi barcha jarayonlar investitsiya sikllarining doimiy ravishda takror ishlab chiqarilishining oddiy yoki kengaytirilgan ko'rinishlarida davom etadi. Qishloq xo'jaligida yerdan oqilona foydalanishning garovi bu ilmiy asoslangan


texnologiyalar bo‘lib, ulardan faol foydalanish tuproqqa ishlov berish va ekinlarni yetishtirishda sinergetik samaralarni o‘zida mujassam etadi.



**10-rasm. Tizim-takror ishlab chiqarish konseptual yondashuviga asoslangan qishloq xo‘jaligi korxonasining investitsion faoliyatini tashkil etish sxemasi<sup>23</sup>**

<sup>23</sup> Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Sirdaryo viloyati oxirgi o'n yilliklarda, ayniqsa, 2017 yildan boshlab o'simlikchilikda kompleks ilmiy asoslangan tavsiyalar asosida yondashilayotganligini yangicha iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning muhim sharti sifatida baholanadi va buni quyidagilarda kuzatish mumkin (11-rasm).



**11-rasm. Sirdaryo viloyatida haqiqiy va ilmiy asoslangan ekin maydonlari, ming ga.<sup>24</sup>**

**Birinchidan**, mulkchilik munosabatlarini takomillashtirilayotganligi natijasida viloyatda to'liq paxta-to'qimachilik va g'allachilik klasterlarini tashkil etilganligi hamda klaster va fermer ishlab chiqarish munosabatlarini tartibga solinganligida namoyon bo'ladi. **Ikkinchidan**, ilmiy asoslangan texnologiyalar asosida ekin turlarini joylashtirilishi tartiblariga qa'tiy rioya etilishi ongli ravishda har bir qishloq xo'jaligi subyektlarining (tadbirkorlar) bozor sharoitida ularning manfaatlariga to'la mos keladi. **Uchinchidan**, xorijiy va mahalliy tajribalardan keng foydalangan holda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning zamonaviy yangi tizimi amalda joriy etilmoqda va ushbu tizim muntazam takomillashtirilib borilayotganligi natijasida yuqori unumli hamda tejamkor texnika va texnologiyalardan foydalanish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash masalalari to'liq davlat

<sup>24</sup> Sirdaryo viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

dasturlari asosida moliyalashtirishda o‘z aksini topmoqda. **To‘rtinchidan**, ekin yerlaridan samarali foydalanishning muhim sharti bo‘lgan urug‘chilik seleksiyasi, yerlarga agrokimyoviy ishlov berishning eng yangi usullarini qo‘llanayotganida ko‘rish mumkin.

Dissertatsiyaning **“Turli tashkiliy-huquqiy shakldagi qishloq xo‘jaligi korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari”** deb nomlangan beshinchi bobida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida iqtisodiy o‘shish, qishloq xo‘jaligi yalpi qo‘shilgan qiymatining mutloq va nisbiy ko‘rsatkichlari, iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda sohaning salmog‘i dinamikasini ekonometrik modellashtirish asosida 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Iqtisodiy va matematik modellashtirish usullari tizimi, xususan, regressiya, trend va simulyatsiya modellaridan foydalangan holda yalpi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga qishloq xo‘jaligiga kiritilayotgan investitsiyalar, ilmiy-texnik ishlanmalar uchun xarajatlar, sohaga ajratilgan subsidiyalarning ta‘sirini, mehnat unumdorligini baholashning korrelyatsion (3-jadval) va regression tahlili modeli (4-jadval) ishlab chiqilgan hamda prognoz qilingan darajasini rivojlantirishning istiqbolli parametrlari aniqlashtirilgan.

### 3-jadval

#### Yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti qiymatiga ta‘sir qiluvchi omillarning korrelyatsion tahlili<sup>25</sup>

O‘zgaruvchilar	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)
<b>(1) Yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti qiymati, mlrd. so‘m</b>	1.000				
<b>(2) Qishloq xo‘jaligiga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m</b>	0.961 (0.000)	1.000			
<b>(3) Qishloq xo‘jaligi fan sohasidagi ilmiy-tadqiqot va texnik ishlanmalar uchun xarajatlar, mlrd. so‘m</b>	0.969 (0.000)	0.940 (0.000)	1.000		
<b>(4) Qishloq xo‘jaligida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, mlrd. so‘m</b>	0.893 (0.000)	0.888 (0.000)	0.879 (0.000)	1.000	
<b>(5) Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi, kishi/soat</b>	0.810 (0.000)	0.796 (0.000)	0.757 (0.000)	0.825 (0.000)	1.000

<sup>25</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida stata dasturi yordamida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Juftlik korrelyatsiyalari jadvali o'zgaruvchilar o'rtasidagi chiziqli bog'liqlikni Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti yordamida baholaydi. Koeffitsiyent qiymatlari -1 dan +1 gacha bo'lib, p-qiymatlar qavs ichida keltirilgan ( $p < 0.05$  bo'lsa, korrelyatsiya statistik ahamiyatli deb hisoblanadi).

Yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti qiymati (Y) bilan bog'liqliklar: Investitsiyalar (X1): Korrelyatsiya koeffitsiyenti 0.961 ( $p < 0.001$ ) bo'lib, bu ikki o'zgaruvchi o'rtasida juda kuchli ijobiy chiziqli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Ya'ni, investitsiyalar hajmi oshganda, mahsulot qiymati ham sezilarli darajada oshadi.

Ilmiy-tadqiqot xarajatlari (X2): Koeffitsiyent 0.969 ( $p < 0.001$ ) bo'lib, bu ham juda kuchli ijobiy bog'liqlikni ko'rsatadi. Ilmiy-tadqiqot xarajatlari oshishi mahsulot qiymatining oshishiga kuchli ta'sir qiladi.

Davlat qo'llab-quvvatlashi (X3): Koeffitsiyent 0.893 ( $p < 0.001$ ) bo'lib, bu o'zgaruvchi bilan mahsulot qiymati o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjud.

Mehnat unumdorligi (X4): Koeffitsiyent 0.810 ( $p < 0.001$ ) bo'lib, ijobiy bog'liqlik mavjud, lekin boshqa o'zgaruvchilarga nisbatan bir oz zaifroq.

Mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqliklar:

Investitsiyalar (X1) va ilmiy-tadqiqot xarajatlari (X2) o'rtasidagi korrelyatsiya 0.940 ( $p < 0.001$ ), investitsiyalar va davlat qo'llab-quvvatlashi (X3) o'rtasida 0.888 ( $p < 0.001$ ), investitsiyalar va mehnat unumdorligi (X4) o'rtasida 0.796 ( $p < 0.001$ ). Ilmiy-tadqiqot xarajatlari (X2) va davlat qo'llab-quvvatlashi (X3) o'rtasida korrelyatsiya 0.879 ( $p < 0.001$ ), ilmiy-tadqiqot xarajatlari va mehnat unumdorligi (X4) o'rtasida 0.757 ( $p < 0.001$ ). Davlat qo'llab-quvvatlashi (X3) va mehnat unumdorligi (X4) o'rtasida korrelyatsiya 0.825 ( $p < 0.001$ ).

Juftlik korrelyatsiyalari tahlili o'zgaruvchilar o'rtasida yuqori darajadagi ijobiy chiziqli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Barcha korrelyatsiya koeffitsiyentlari statistik jihatdan ahamiyatli ( $p < 0.001$ ), bu o'zgaruvchilarning bir-biriga kuchli bog'liqligini tasdiqlaydi.

Regression tenglamasidagi koeffitsiyentga ko'ra, investitsiyalarning 1 mlrd. so'mga oshishi YAQXMga o'rtacha 2.803 mlrd. so'mlik o'sishga olib keladi. Bu esa investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.  $t$ -qiymat = 1.66,  $p = 0.064$ , ya'ni bu omil 10% ishonch darajasida statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Bu o'z navbatida infratuzilmani yaxshilash, texnologiyalarni yangilash va ishlab chiqarish hajmini kengaytirish orqali erishiladi.

Quyida 4-jadvalda yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti qiymatiga (YAQXM) ta'sir etuvchi asosiy ishlab chiqarish omillarining regression tahlili natijalari keltirilgan. Shuningdek uning regression tahlil tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$YAQXM = -2506,779 + 2,803 * X1 + 8,822 * X2 + 6,601 * X3 + 0,055 * X4 \quad (1)$$

**Yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti qiymatiga ishlab chiqarish omillari  
ta’sirining regression tahlil natijalari<sup>26</sup>**

Yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti qiymati, mlrd. so‘m	Koef.	Standart xato	t-qiymat	p-qiymat	[95% Ishonch Intervalli]	Ahamiyatlilik
Qishloq xo‘jaligiga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m	2.803	1.693	1.66	0.064	[0.377, 11.541]	*
Qishloq xo‘jaligi fan sohasidagi ilmiy-tadqiqot va texnik ishlanmalar uchun xarajatlar, mlrd. so‘m	8.822	544.623	0.74	0.002	[9.015, 62.66]	***
Qishloq xo‘jaligida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, mlrd. so‘m	6.601	2.319	5.43	0.000	[7.659, 17.543]	***
Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi, kishi/soat	0.055	0.485	0.11	0.735	[1.809, 2.502]	-
Constant	- 2506.77 9	16328.03 7	-0.15	0.013	[- 130784.15, - 17977.896]	**
*** $p < .01$ , ** $p < .05$ , * $p < .1$						

Tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, ilmiy-tadqiqot ishlari uchun ajratilgan mablag‘lar YAQXMga eng kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Har bir qo‘shimcha mlrd. so‘m mablag‘ YAQXMga o‘rtacha 8.822 mlrd. so‘m o‘sish olib kelmoqda. t-qiymat = 0.74, p = 0.002 — bu ko‘rsatkich 1% dan past darajada statistik ahamiyatga ega, ya’ni juda ishonchli. Bu natijalar ilm-fan asosidagi yondashuvlarning qishloq xo‘jaligidagi samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Davlat subsidiyalari, grantlar va moliyaviy imtiyozlar ham YAQXMga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkichning regressiya koeffitsiyenti 6.601 bo‘lib, har bir mlrd. so‘m davlat yordami YAQXMga o‘rtacha 6.601 mlrd. so‘m qo‘shilishini bildiradi. t-qiymat = 3.45, p = 0.000 — bu omil ham 1% ishonch darajasida juda muhim hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich davlat siyosatining samaradorligi va iqtisodiyotdagi ishtirokini aks ettiradi.

Kutilganidan farqli ravishda, mehnat unumdorligining yalpi mahsulot qiymatiga ta’siri sezilarli emas. Uning koeffitsiyenti 0.055 bo‘lib, statistik jihatdan ahamiyatsiz: t-qiymat = 0.11, p = 0.735 — bu juda yuqori p-qiymat

<sup>26</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida stada dasturi yordamida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bo‘lib, bu omil statistik jihatdan ahamiyatsiz ekanini bildiradi. Ehtimol, bu natija texnologik rivojlanish, mexanizatsiya darajasiga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Regressiya tenglamasining intercept yoki constant  $-2506.779$  bo‘lib, agar barcha mustaqil omillar nolga teng bo‘lsa, YAQXM manfiy bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu omil iqtisodiy talqin nuqtai nazaridan tahlil qilinyotganda asosiy omillarning yo‘qligida salbiy tendensiyani bildiradi.

Yuqorida amalga oshirgan korrelyatsion-regression tahlil natijalari asosida olingan ekonometrik modellarga tayanib yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti qiymati va qo‘shilgan qiymati hamda mamlakat YaIMning o‘shisdagi qishloq xo‘jaligining salmog‘i, yalpi qishloq xo‘jaligiga ta’sir qiluvchi shartli  $x_1, x_2, x_3, x_4$  omillarni 2024-2030 yillar uchun uzoq muddatli prognoz parametrlari ishlab chiqilgan. Prognoz ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish va ularning o‘zgarish jarayonlarini hisob-kitob qilishda sohani rivojlantirish hamda qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishida iqtisodiy munosabatlarini takomillashtirish bo‘yicha mualliflik takliflari ham hisobga olindi (5-jadval).

### 5-jadval

#### Yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti prognoz ko‘rsatkichlari

Yil	Yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti qiymati, mlrd.so‘m	Qishloq xo‘jaligiga kiritilgan investitsiyalar, mlrd.so‘m	Qishloq xo‘jaligi fan sohasidagi ilmiy - tadqiqot va texnik ishlanmalar uchun xarajatlar, mlrd.so‘m	Qishloq xo‘jaligida davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash mlrd. so‘m	Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi, kishi/soat
2025	347701	18377	97	20143	35134
2026	379110	20118	103	22023	37668
2027	411778	21924	110	23979	40495
2028	445303	23777	117	25996	43632
2029	479346	25666	123	28050	47098
2030	513583	27577	130	30113	50909

Shuningdek, ushbu bobda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, agrosanoat majmuida agromarketingni joriy etish istiqbollari tahlil qilingan va amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Qishloq xo‘jaligi sohasini zamonaviy bozor talablariga mos ravishda rivojlantirishda agromarketing konsepsiyasi va innovatsion qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari muhim o‘rin tutadi. Aynan agromarketing va innovatsiyalar integratsiyasi orqali ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasida samarali aloqalarni ta’minlash, mahsulotlar bozorini diversifikatsiya qilish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda raqobatbardosh mahsulot etishtirish imkoniyati yaratiladi.

Agromarketing faoliyati qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirishda strategik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bozorni segmentlash, mahsulotni pozitsiyalash, talabni aniqlash va prognoz qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash imkoniyatlari tahlil qilingan. Shu jumladan, mahsulot aylanmasi zanjirida agrobiznes subyektlarining o'zaro hamkorligi, agrosanoat integratsiyasi va raqamli marketing platformalari bilan ishlash masalalariga e'tibor qaratilgan.

Innovatsion qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, jumladan, davlat grantlari, investitsiya loyihalari va texnologik inkubatorlar faoliyati qishloq xo'jaligi subyektlarining texnologik yangilanishini ta'minlaydi. Ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli monitoring va blokcheyn texnologiyalari agrar sohadagi faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Muallif tomonidan taklif etilgan agromarketing modellari va innovatsion tizimlar agrosanoat tarmoqlarini muvozanatli rivojlantirish, tarmoqlararo kooperatsiyani mustahkamlash va ichki bozorda mahsulot aylanmasini ko'paytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvlar milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilash va ustuvor maqsadlarga erishishda strategik ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA

1. Yer kabi asosiy va takror ishlab chiqarilmaydigan ishlab chiqarish vositalari, bir tomondan, xususiy mulk bo'lishi mumkin, bu orqali yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, ikkinchi tomondan, oqilona davlat nazorati ostida bo'lishi lozim.

2. To'g'ri yaratilgan taqsimlash mexanizmi ishchilarga nisbatan rag'batlantiruvchi funktsiyani bajaradi, shu bilan birga mehnat va ishlab chiqarish vositalari uchun foyda taqsimotiga hissa qo'shadi, shuningdek, ijtimoiy kafolatlarni amalga oshiradi. Hozirgi vaqtda korxonalar o'z daromadlarini mustaqil ravishda taqsimlaydilar, ammo ular keyingi takror ishlab chiqarishni ta'minlaydigan fondlarni shakllantirish zarurati tufayli o'z harakatlarida cheklangan. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi korxonalari zamonaviy davrda kamdan-kam hollarda tashqi omillar ta'siri natijasida salbiy oqibatlarini yumshatish uchun mo'ljallangan fondlarni shakllantiradi.

3. Yerdan samarali foydalanishni tashkil etish nafaqat inventarizatsiya o'tkazish, yerdan foydalanish obyektlarining chegaralarini belgilash, yerning sifat holatini o'rganishni, balki qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish asosi sifatida kartografik va muhandislik-texnik ta'minot tizimini yaratishni ham o'z ichiga oladi.

4. Davlat tomonidan tartibga solish qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ichki narxlarini mamlakat hududida belgilangan narxlardan yuqori darajada

ushlab turishga, shuningdek qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga soliq va kredit imtiyozlarini berishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkinligini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. To'g'ridan-to'g'ri davlat budjetidan yo'naltiriluvchi to'lovlardan tashqari, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash pul mablag'lari ko'rinishida bo'lmagan boshqa vositalarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash sohasida davlat tomonidan tartibga solish bilan bog'liq bo'lmagan va bozor kon'yunkturasi yoki texnologik omillar hisobiga yuzaga chiquvchi ta'sirlar ham kuzatilishi mumkin.

5. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish tizimining samaradorligini o'lchashning uslubiy asoslarini o'rganishning asosiy vazifalaridan biri qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini qo'llab-quvvatlashning natijadorligiga erishish uchun tahliliy vositalardan foydalangan holda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining barqarorligi va rentabelligi, ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga va umuman olganda tarmoqni rivojlantirishga davlat tomonidan tartibga solish usul va mexanizmlarining ta'sirini baholashdan iboratdir. Davlat tomonidan tartibga solish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash samaradorligini baholashning uslubiy asoslarini o'rganish ushbu tushunchaning mohiyatini ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

6. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan ko'rilayotgan qo'llab-quvvatlash choralarning samaradorligini baholash, ayniqsa budjet imkoniyatlarining pasayishi sharoitida muhim vazifadir. Cheklangan moliyaviy resurslar bilan belgilangan maqsadlarga eng kam xarajat bilan erishish zaruriyati, bugungi kunda budjetni taqsimlash samaradorligini baholash muammosi juda muhim ekanligini ko'rsatadi, hozirda ushbu masalaga yetarlicha e'tibor berilmayotganligini qayd etish lozim.

7. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi raqamli o'zgarishlarga o'z boshidan kechirmoqda. Masalan, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohalarida mobil texnologiyalarning tarqalishi, masofadan turib zondlash va ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlarni qoplaydi, bozorlarga kirishini yaxshilaydi, shu bilan ishlab chiqarish va unumdorlikni oshiradi, ta'minot zanjirini maqbullashtiradi va tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi.

8. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining turli tarmoqlariga IT-texnologiyalarni joriy etish, yuqori intellektga ega robototexnikadan foydalanish, yirik vertikal integratsiyalashgan agrosanoat tuzilmalarini rivojlantirish raqamli transformatsiya davrida qishloq xo'jaligi yuqori kasbiy mahorat va ko'nikmaga ega, tashqi va ichki muhit muammolariga bir zumda javob beradigan, aql-zakovatli moslashuvchan mutaxassislariga muhtojligidan dalolatdir.

9. Kooperativ tuzilmalar faoliyatini huquqiy qo'llab-quvvatlash dunyoning barcha mamlakatlarida bir-biridan farq qiladi. Umuman olganda kooperatsiyani huquqiy jihatdan tartibga solish murakkab jarayon hisoblanadi. U konstitutsiyaviy, fuqarolik, ma'muriy, kooperativ, soliq va bank qonunchiligi normalarini o'z ichiga oladi. Ushbu normalar kooperativ tuzilmalarning turlari va faoliyat doirasiga bevosita bog'liq.

10. Qishloq xo'jaligida investitsiya faoliyatini faollashtirish va kengaytirish zarurati bir qator davlat ahamiyatiga molik muammolar – qishloq hududlarini rivojlantirish, mamlakatning hududiy yaxlitligini saqlash, import o'rnini bosish siyosatini amalga oshirish, mamlakat aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash kabilarni hal etishning maqsadga muvofiqligi bilan izohlanadi. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligida investitsiya faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish zarur.

11. Qishloq xo'jaligi korxonalari investitsion faoliyatining asosiy iqtisodiy rag'bati investitsiya foydasi hisoblanadi, uning darajasi investorlarning investitsiyalardan kutilmalarini aks ettiradi. Shu bilan birga, rentabellikning o'sishi real va moliyaviy investitsiyalar natijasida ta'minlanadi va qishloq xo'jaligi korxonasining bozor qiymatini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, korxonaning bozor qiymati va buning natijasida mulk egalari daromadlarining o'sishi investitsiya faoliyatini amalga oshirish borasidagi muhim iqtisodiy rag'batlardan biri sanaladi.

12. Qishloq xo'jaligi korxonalari investitsion faoliyatining iqtisodiy rag'batlarini ishlab chiqarish hajmining o'sishi; bir so'mlik investitsion qo'yilmaga to'g'ri keluvchi mahsulot tannarxining pasayishi; mehnat xarajatlarining pasayishi kabi maxsus ko'rsatkichlar bilan to'ldirish taklif qilinadi. Tarmoqning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, qishloq xo'jaligi korxonalari o'z faoliyatini yer resurslari, biologik resurslar (o'simlik va hayvonlar), tabiiy-iqlim sharoiti va boshqalarni hisobga olgan holda tashkil qiladilar, shu bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida foydalaniluvchi resurslarni saqlash va tiklash borasida tegishli investitsion loyihalarni amalga oshirishlari talab etiladi.

13. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi qishloq xo'jaligi sohasi munosabatlari ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga narxni qaror toptirishda bozor tamoyillarini joriy etishda o'z aksini topishi kerak. Bunda, davlat tomonidan tartibga solish direktiv tavsifga ega emas balki, bozor munosabatlari sharoitida imtiyozli kreditlash, narx siyosati, soliqlar, subsidiyalar, eksport va importni rivojlantirish va boshqalar orqali amalga oshiriladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.01.2020.I.20.06 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ БЕРДАХА  
ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**БУРХАНОВ АЛИШЕР ХАДЖИМУРАДОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В  
ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО  
ПРОИЗВОДСТВА**

08.00.04 — Экономика сельского хозяйства

**Автореферат  
диссертации доктора экономических наук (DSc)**

**Нукус – 2025**

Тема диссертации на соискание учёной степени доктора наук (DSc) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2022.4.DSc/Iqt420.

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный консультант:**

**Хушмотов Наркул Садуллаевич**  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Досчанов Тангирберген**  
доктор экономических наук, профессор

**Алиев Яшнар Эгамбердиевич**  
доктор экономических наук, профессор

**Ташматов Рустам Хусанович**  
доктор экономических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Самаркандский институт экономики и сервиса**


Защита диссертации состоится «22» августа 2025 г. в 16<sup>00</sup> на заседании разового Научного совета № 03/30.01.2020.120.06 по присуждению ученых степеней при Каракалпакском государственном университете имени Бердаха. (Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Улица Абдирова, дом 1. Тел.: (99861) 223-60-78; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета имени Бердаха (зарегистрирована под № 348). Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Улица Абдирова, дом 1. Тел.: (99861) 223-60-78, e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Автореферат диссертации разослан «05» августа 2025 г.  
(реестр протокола рассылки № 85 от «05» августа 2025 г.).

 Сауханов Ж.К.

Председатель разового Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

 Утемуратов Р.Б.  
Ученый секретарь разового Научного совета по присуждению ученых степеней, PhD, доцент

 К.Убайдуллаев  
Председатель Научного семинара при разовом Научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор



## ВВЕДЕНИЕ (Аннотация докторской диссертации)

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** За последние 20 лет развивающиеся экономики мира внесли всё больший вклад в развитие глобальных рынков сельского хозяйства и рыбного хозяйства, и ожидается, что эта тенденция сохранится в предстоящем десятилетии. В следующем десятилетии общий объём потребления сельскохозяйственной и рыбной продукции, как ожидается, будет расти в среднем на 1,0% в год, что в основном наблюдается в странах с низким и средним уровнем дохода. Годовой рост мирового потребления продуктов питания прогнозируется на уровне 1,2% в связи с увеличением численности населения и доходов.

Торговля сельскохозяйственной продукцией продолжает расти пропорционально объёмам производства и потребления, при этом около 20% всех потребляемых продуктов пересекают государственные границы. Латинская Америка и Карибский бассейн, Северная Америка, Европа и Центральная Азия укрепляют свои позиции в качестве основных чистых экспортёров сельскохозяйственной продукции, что создаёт дополнительные возможности для сельскохозяйственных предприятий участвовать в глобальных цепочках продовольственного обеспечения и извлекать из этого выгоду.

Это подчёркивает важность хорошо функционирующих рынков и необходимость устойчивых торговых систем, которые обеспечивают глобальный доступ к безопасным и питательным продуктам питания, поддерживают получение доходов в отрасли сельского хозяйства и смягчают воздействие локальных шоков, таких как недостаток урожая или экстремальные погодные явления.

В последние годы резкий рост цен на сельскохозяйственные ресурсы в мире создаёт серьёзную угрозу глобальной продовольственной безопасности. В частности, повышение цен на удобрения приводит к увеличению стоимости продовольственных товаров в глобальном масштабе. Для увеличения объёмов производства сельскохозяйственной продукции в будущем важным становится не столько интенсивное использование земли, сколько переход к свободным рыночным отношениям в сельском хозяйстве с внедрением современных методов управления, что способствует повышению урожайности в растениеводстве и увеличению продуктивности животноводства за счёт роста инвестиций — важнейшего условия для повышения продуктивности.

Согласно исследованиям, к 2032 году 79% роста производства в сельском хозяйстве будет обеспечено за счёт увеличения урожайности сельскохозяйственных культур, 15% — за счёт расширения площадей обрабатываемых земель, и 6% — за счёт интенсивного сельского хозяйства. Это, в свою очередь, требует закрепления новых экономических отношений в сельском хозяйстве<sup>1</sup>.

В Республике Узбекистан для резкого повышения уровня продуктивности и рентабельности с ориентацией на финансовые результаты в сельском

---

<sup>1</sup> © 2021 The World Bank Group 1818 H Street NW Washington, DC 20433 Telephone: 202-473-1000 Internet: [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org).

хозяйстве последовательно внедряются современные методы управления, совершенствуются оптимальные варианты использования земельных ресурсов, создаются условия для максимального использования всех возможностей по увеличению экспорта сельскохозяйственной продукции, предпринимаются меры по доведению уровня глубокой переработки сельхозпродукции как минимум до одной четверти. Также ставится задача довести урожайность основных культур — хлопка и зерновых — до уровня показателей развитых стран в сельском хозяйстве, локализовать семеноводческую систему, создавать агрологистические центры и совершенствовать деятельность уже существующих, переходить на финансирование, отвечающее требованиям рыночных отношений, а также совершенствовать систему страхования рисков и последовательно улучшать инфраструктуру сельских территорий.

Это, в свою очередь, требует научно обоснованных подходов, в частности, разработки и внедрения организационно-экономических механизмов повышения эффективности отрасли, перехода к инновационной экономике, а также научно обоснованных предложений и рекомендаций по внедрению организационно-экономических методов, основанных на принципах свободных рыночных отношений.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-158 от 11 сентября 2023 года «О Стратегии «Узбекистан – 2030», № УП-5853 от 23 октября 2019 года «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы», № УП-6024 от 10 июля 2020 года «Об утверждении Концепции развития водного хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы», № УП-5303 от 16 января 2018 года «О мерах по дальнейшему обеспечению продовольственной безопасности страны», № УП-5199 от 9 октября 2017 года «О мерах по коренному совершенствованию системы защиты прав и законных интересов фермерских, дехканских хозяйств и владельцев приусадебных земель, эффективного использования посевных площадей сельского хозяйства», № УП-14 «О мерах по регулированию деятельности хлопково-текстильных кластеров», Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-4633 от 6 марта 2020 года «О мерах по широкому внедрению рыночных принципов в сферу хлопководства», № ПП-262 от 28 мая 2022 года «О мерах по широкому внедрению рыночных принципов при закупке и реализации пшеницы урожая 2022 года», № ПП-3574 от 28 февраля 2018 года «О мерах по коренному совершенствованию системы финансирования производства хлопка-сырца и зерновых колосовых», а также в других нормативно-правовых документах, касающихся данной сферы деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной

экономики.

### **Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.**

Проблемы совершенствования новых (современных) экономических отношений в повышении эффективности сельскохозяйственного производства в настоящее время активно изучаются в ведущих высших учебных заведениях и научных центрах мира, в том числе в Wageningen University and Research Centre (Нидерланды), University of California Davis (США), Swedish University of Agricultural Sciences (Швеция), Universite Paris Saclay (Франция), The Australian National University (Австралия), University of British Columbia (Канада), The University of Tokyo (Япония), China Agricultural University (Китай), University of Hohenheim (Германия), ETH ZURICH (Швейцария), Northwest a&f University (Китай), University of Massachusetts Amherst (Австралия), Ghent University (Бельгия), University of Copenhagen (Дания), University College Dublin (Ирландия), University of Valencia (Испания), University of Milan (Италия), King Saud University (Саудовская Аравия), Universiti Putra Malaysia (Малайзия), University of Agriculture Faisalabad (Пакистан), Foreign Trade Regulation-United States, International Water Management Institute (IWMI), United Nations Food and Agriculture Organization (FAO), CGIAR, Global Forum on Agricultural Research (GFAR), International Agriculture Center (Netherlands) и ряде других университетов и научных центров.

Получен ряд научных результатов по совершенствованию экономических отношений и повышению эффективности производства в сельском хозяйстве. В частности: определены приоритеты и социально-экономические последствия цифровизации сельского хозяйства и обеспечения инклюзивного роста в сельском хозяйстве (Wageningen University And Research Centre, Нидерланды), предложены пути повышения эффективности мелких сельскохозяйственных производителей в обеспечении продовольственной безопасности (University Of California Davis, США), изучены возможности размещения сельскохозяйственных культур и развития органического сельского хозяйства (Swedish University Of Agricultural Sciences, Швеция), разработаны предложения и рекомендации по комплексному развитию сельских территорий (AGRIS, Россия), изучены перспективы внедрения ресурсосберегающих технологий в сельском хозяйстве (Universite Paris Saclay, Франция), проведены исследования по биоэкономике и диверсификации сельского хозяйства (University Of Hohenheim, Германия), освещен механизм управления инновациями в сельском хозяйстве (Universiti Putra Malaysia, Малайзия), проанализированы модели организации достойного труда в сельском хозяйстве (University Of Agriculture Faisalabad, Пакистан), разработаны предложения по совершенствованию договорных отношений между производителями сельскохозяйственной продукции (Белорусская государственная сельскохозяйственная академия, Беларусь), оценено влияние климатических изменений на устойчивое развитие сельского хозяйства (ISCAD, Узбекистан).

В мировом масштабе продолжается исследования направленные на внедрение и совершенствование новых экономических отношений в

сельском хозяйстве по следующим направлениям: разработка структуры аграрного рынка и их классификации; эффективное использование имеющихся земельных и водных ресурсов на основе экономичных технологий в аграрном секторе; совершенствование рынка нетрадиционных агроуслуг в сельском хозяйстве; обеспечение темпов экономического роста сельскохозяйственных предприятий за счет развития сельскохозяйственных производственных отношений, устойчивого развития рынков агроресурсов и агроуслуг за счет инновационных факторов.

**Степень изученности проблемы.** На протяжении многих веков различные ученые уделяли большое внимание теоретическим и практическим вопросам производства и экономических отношений.

Теоретические основы производственных и экономических отношений исследованы в работах зарубежных ученых и специалистов А. Дидикина<sup>2</sup>, П. Буагильбера, Т. Кампанеллы, Дж. Кейнса, Ф. Кене, У. Петти, Д. Рикардо, П. Самуэльсона, А. Смита и других.

Большой вклад в разработку современной концепции различных сфер производства и экономических отношений в сельском хозяйстве внесли А.И. Алтухов<sup>3</sup>, А.А. Багмут, Л.В. Бондаренко, В.В. Кузнецов, Е.И. Семенова и другие.

Проблемы внутренних экономических отношений в сельскохозяйственных предприятиях отражены в работах В.А. Анохина, Ф.Г. Арутюняна, М.П. Тушканова, А.М. Симечева, А.М. Югая, Л.В. Усенко<sup>4</sup> и других.

